

LUQMON BO‘RIXONNING “IMOM MOTURUDIY” TARIXIY ROMANIDA KOMPOZITSIYA VA SYUJET YAXLITLIGI

Abdullayeva Sevara Umidjon qizi,

Guliston davlat universiteti

Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

abdullayevas089@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturudiy” tarixiy romanida kompozitsiya va syujet yaxlitligi tahlil qilinib, adibning ijodida tarixiy mavzuning ishlanishi va yangicha qarashlari tahlil usuli orqali bayon qilingan.

Kalit so‘z: “Imom Moturudiy” romani, syujet, kompozitsiya, konflikt, tarixiy shaxs.

Abstract. This article analyzes the composition and plot integrity of the historical novel “Imom Moturudiy” by the famous Uzbek writer Luqmon Borikhon, and describes the development of the historical theme and new views in the writer’s work through the method of analysis.

Keywords: novel “Imom Moturudiy”, plot, composition, conflict, historical figure.

Аннотация. В данной статье анализируется композиция и сюжетная целостность исторического романа “Имам Мотурудий” известного узбекского писателя Лукмона Борихона, а также описывается развитие исторической темы и новые взгляды в творчестве писателя с помощью метода анализа.

Ключевые слова: роман “Имам Мотурудий”, сюжет, композиция, конфликт, историческая личность.

Kirish. Badiiy asarning syujeti va kompozitsiyasi haqida so‘z borganda, avvalo, mazkur ikki tushunchaning o‘ziga xos qirralarini to‘laqonli idrok etib olmoq joiz. Negaki, syujet kompozitsiyada maromiga yetadi. Ayrim olimlar bu ikki tushunchani alohida-alohida ajratib o‘rganishni taklif qilsa, ayrimlari uyg‘unlikda talqin qilishni afzal deb biladilar. Aristotel zamonidan buyon ham syujetning fabuladan keyingi manzili, ya’ni tuzilishi kompozitsion unsurlar dinamikasida yaqqol namoyon bo‘lishini idrok etish muhim omil bo‘lib kelmoqda. Syujet insonning voqelikni qay tarzda amalga oshirish maydoni. Yozuvchining olam va odam haqidagi muhim dunyoqarashining ajralmas qismi ekanligini unutmazlik lozim.

Oddiy ikki qator she’rda ham muayyan syujet va uni yuzaga chiqaruvchi kompozitsiya mavjud bo‘ladi. Shunday ekan, fabula hali hayotning o‘zi, voqelik, uni qayta ishlangani, tartibga solingani, izchillik negizida namoyon bo‘lishi syujetdir. Syujetda o‘ziga xos unsurlar bo‘ladiki, bu unsurlar badiiy psixologizm prinsiplarida muvofiqlashadi.

Adabiyotlar sharhi. “Manbalarda kompozitsiya badiiy asar qismlarini yagona badiiy konsepsiya asosida joylashtirish, ma’lum badiiy-estetik maqsad yo‘lida birlashtirish degan terminologik ma’nolarni anglatishi qayd etilgan. Shuning uchun asar kompozitsiyasini shakllantirishda, avvalo, syujet va uning tarkibiy qismi, konflikt, fabula, peyzaj, portretlar bilan birga asar tili, obrazlar tizimi, yozuvchining uslubi ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Lekin bir narsani aytish kerakki, qismlar ma’lum niyatni amalga oshirishda

me'yordan chiqib ketmasligi kerak. Ya'ni kompozitsion komponentlardan foydalanishda biriga ortiq darajada e'tibor qaratish boshqalarining asardagi badiiy-estetik vazifasi ochilishiga soya solishi mumkin"[1:98].

Ko'rinadiki, asarning qism va bo'limlarida badiiy syujet va kompozitsiyaning yagona estetik markazda uyushuvi inson iroda yo'nalishining o'ziga xosligidan dalolat beradi. Luqmon Bo'rixonning juda ko'plab badiiy izlanishlarida ruhiy tahlil o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qiladi. Xususan, "Imom Moturidiy" tarixiy romanida muallif asosan bosh qahramon timsolida tarixiy shaxs konsepsiyasini ilgari suradi. Ya'ni ijodkor olamni bilish yo'lida o'z badiiy talqinidagi tarixiy shaxs ruhiyatini taftish qiladi, uning murakkab taqdiriga nazar soladi. Shu tarixiy shaxs vositasida zamon va makonni o'rganadi. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, falsafiy qarashlarini ilgari suradi. Demak, tarixiy asarni baholashda o'tmishning qay darajada haqqoniy jonlantirilgani emas, balki mavjud voqelik, tarixiy shaxs qay tarzda badiiy tafakkur qilingani hisobga olinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. "Syujet badiiy shaklning eng muhim unsurlaridan biri bo'lib, u asardagi bir-biri bilan uzviy bog'liq voqealar tizimidir". Syujetning birlamchi funksiyasi asarda diqqat markaziga qo'yilgan muammoni badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materiallarini uyushtirib berishdir. Syujet personajlarning harakati, faoliyati, o'z maqsadi yo'lidagi intilishi va kurashidan tarkib topadi. "Syujet ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim deb nomlangan shartli qismlardan tarkib topadi" [2:68].

Tahlillar va natijalar. "Imom Moturidiy" romanida voqealar tadrijiy (xronikal) tartibda joylashadi. Asar syujetining batartibliigi shundaki, syujet ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim tarzida batartib qurilgan. Romanning birinchi qismidagi birinchi bobi "Uch otliq" deb nomlanib, unda uch otliqning "Imom Moturidiy" huzuriga borishi, Imom Samarqand hokimi Xolid Xalaj bilan tanishish bazmiga borishni rad etishi bilan boshlanadi. Shundan so'ng voqealar murattab davom etadi. Asar syujeti tarixiy haqiqatlarga asoslangan bo'lsa-da, yozuvchi konsepsiyasiga muvofiq qayta to'qib chiqilgan. Syujet yaratish maqsadida tarix voqeligiga obdon «ishlov» bergan. Romanda ekspozitsiya asarning boshida beriladi. Bundan tashqari, ekspozitsiya roman o'rtasida, voqealar rivojiga ham singdirib yuboriladi. Masalan, asarning muqaddima qismiga e'tibor qaratamiz.

Muallif ushbu ma'lumotlarni keltirish orqali davrning siyosiy ahvoli haqida ma'lumot berib o'tadi. Yana o'qiymiz: "Besh yildan beri Bag'dodda yashab, kitobat hunarini o'rganib yurgan xattot Qutlug' Muhammad Nuriy ota yurtida yuz bergan noxushliklardan g'oyat tashvishga tushib qolgan edi. Ayniqsa, ustozi imom Abu Mansur Moturidiyning sog'-omonligini bilish ilinjida o'sha taraflardan kelgan kattayu kichikning og'ziga termulib kuni o'tardi. Oxiri toqati-toq bo'ldi: safar xurjunini yelkaga tashladi. Samarqandlik Inoyat ibn Vosiqning karvoniga ilashib yurt sari yuzlandi. Karvon Qum shahriga yetgan chog' Xolid Xalaj boshchiligidagi Somoniylarning yildirim lashkari

isyonchilarni tor-mor qilgani, Is'hoq ibn Nuhning o'zi Jayhun ortiga arang qochib qutulgani, amir Sa'd Nasr ibn Ahmad esa Xolid Xalajni Samarqandga muvaqqat hokim etib tayinlagani haqidagi xabar xattotning ham qulog'iga yetib keldi. Biroq bu mujddadan Qutlug' Muhammadning ko'ngli taskin topmadi. Chunki uni aynan ustozining turmush-tirikchiligi, hol-ahvoli qiziqtirardi" [3:87].

Romanning ushbu muqaddima qismi ekspozitsiyadir. Yozuvchi ekspozitsiyani faqatgina asarning boshiga joylashtirmaydi (siyosiy ahvolnigina bayon etadi), balki o'z konsepsiyasidan kelib chiqqan holda ekspozitsiyani voqealar rivojiga qo'shib yuboradi. "O'tgan qishning boshlarida Samarqand tuyqus o't-olov ichida qoldi. Buxoroda Somoniylar saltanati hukmdori Ahmad ibn Ismoil xufyona bir tarzda o'ldirilgach, Balx tomonidan Is'hoq ibn Nuh qo'shin tortib Samarqandni ishg'ol etdi. Abu Mansur ushbu noxush voqealarga isyon tariqasida, mana bir yildirki, shaharga tushmay, madrasaga qatnamay qo'ydi. Tokzorda kuymalandi, uch-to'rt qo'y-qo'zi bilan andarmon bo'ldi. Moturidlik besh-olti yosh-yalangni yig'ib xuddi avvalgidek muallimlik qildi" [3:128].

Yuqoridagi matnda Abu Mansurning nima sababdan shaharga tushmay qo'ygani, Madrasai Peshvozga bormay qo'ygani asarning o'rtasida bayon etilmoqda. Muallif bu ma'lumotlarni asarning muqaddima qismida ham bersa bo'lardi, lekin unday qilmaydi.

"Imom Moturidiy" romanining ikkinchi bob, ya'ni "Sirli maktub" qismida Samarqand qozikaloni Idris ibn Vaysal Shomiy haqida so'z boradi. Ammo uning qanday qilib qozikalon rutbasiga sohib chiqqanligi haqida hech so'z aytilmaydi. An'anaga muvofiq Samarqand hokimi Xolid Xalaj qanday qilib boshqaruvni o'z qo'liga olganini bayon etish asnosida Idris Shomiyning ham mansabga kelishini bayon qilib ketsa bo'lar edi. Ammo yozuvchi o'z konsepsiyasiga muvofiq kompozitsion jihatdan mukammal asar yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'rgan va roman yozish jarayonida ham bu maqsadiga muvofiq tarzda harakat qilgan. Ya'ni bu ma'lumotlar shunchaki, avval boshdan ma'lum qilinsa, romanning qiymati tushadi. Shu jihatdan syujetni mukammal tarzda yaratishga katta e'tibor qaratadi. Endi Idris Shomiyning qozikalonlik rutbasiga kelishiga e'tibor qaratamiz. Bir to'da majusiylar musulmonlarni tahqirlab ko'chaga chiqadi va taloto'p kuchaygandan-kuchayadi. Hech kim, hatto, Abu Mansurning ham bu isyonni bostirishga kuchi yetmaydi. Ammo buni Idris Shomiy uddasidan chiqadi.

"Syujetning salmog'i, ko'lami, ta'sirchanlik darajasi esa badiiy konfliktga bog'liqdir. Hayotning o'zida ham kuchli to'qnashuvlar, keskin ziddiyatli voqealar ko'proq kishilar e'tiborini tortadi. Kishilar o'shanday hodisalarni kuzatish, ular xususida eshitish, bilishni yoqtirishadi. Badiiy asar syujetining o'quvchilarni o'ziga qay darajada jalb qilishi ham undagi konflikt va uning ifodalanish tarziga bog'liqdir", - deb yozadi adabiyotshunos olim A. Ulug'ov.

Asar boshdan oyoq diniy va psixologik konfliktlar asosida qurilgan. Qahramonlar o'rtasidagi ziddiyat qadam-baqadam bayon etilganki, bu asarning voqealar rivojini shiddatli tus olishiga yordam bergan. Romanda konflikt dastlab, «Sirli maktub» bobida

namoyon bo‘ladi. Samarqand hokimi Xolid Xalajga yo‘llangan maktub Idris Shomiy tarafidan yanglish tahlil qilinadi va hokim yuragida Imom Moturidiyga nisbatan adovat olovini uyg‘otishiga sabab bo‘ladi. Ayni voqealar tuguni ham shu yerdan boshlanadi.

Savodi haminqadar bo‘lgan hokimning g‘azab otiga minish uchun shugina noto‘g‘ri talqinning o‘zi yetarli edi. Shu o‘rinda yozuvchi kalavani o‘rtaga tashlaydi. Ko‘zi g‘azabga to‘lgan hokim Imomni topib jazolash uchun yo‘lga tushadi va Samarqand qozikalonining Imomga bo‘lgan g‘arazi ham ayni shu bobda yuzaga chiqadi. Ammo undagi dushmanlik va hasad qachon paydo bo‘lganini voqealar silsilasi davomida ochiqalaydi. Bu esa o‘quvchida keyingi voqealar qanday kechishiga qiziqish uyg‘otadi.

Muallif har bir bobda obrazlar tasvirini berish bilan birga voqealarni rivojlantirib boradi, shu bilan birga avvalgi bobda tilga olingan obrazni keyingi bobda tanishtirib ketadi. Bu o‘qish chog‘ida chalkashlikni bartaraf etadi, qahramon asarga nima sababdan olib kirilgani va uning vazifasi nimadan iborat ekanligini ochiqalaydi. Misol uchun romanning ikkinchi bobida sirli maktubni yetkazgan shaxs – Javod uchun keyingi bobda alohida o‘rin ajratiladi. Javod aslida arosatda qolgan inson timsoli. Imom Moturidiyga shogird tutingan bo‘lsa-da, aslan uning dushmanlari manfaati uchun xizmat qiluvchi shaxsdir.

Yuqorida syujetning ko‘lami badiiy konfliktga bog‘liqligini aytib o‘tdik. Romanda konflikt yozuvchiga qahramonlar ruhiyatini ochishda katta yordam bergan. Yozuvchi konfliktni obrazlar o‘rtasidagi va ularning o‘y-fikrlari bilan to‘qnashuvi tasviridan yuzaga keltirgan. Ijodkor Abu Mansur Moturidiy, Idris Shomiy, Vosiq La‘liy, Mastonbibi kabilarning ruhiy dunyosini chizishda konflikt dan ustalik bilan foydalanadi. Bu esa badiiy haqiqatning tarixiy haqiqatga muvofiqligini ta‘minlabgina qolmasdan, asarning g‘oyatda drammatizmga boyligini ham ta‘minlaydi.

Adabiyotshunos D.Quronov badiiy asar voqelikni badiiy aks ettirgani va uning markazida inson obrazi turgani uchun ham insonning real hayotida mavjud to‘qnashuvlarning bari unda badiiy aksini topishini ta‘kidlaydi. Shuningdek, u badiiy konfliktning uchta turini farqlaydi:

1. Xarakterlararo konflikt.
2. Qahramon va muhit konflikti.
3. Ichki (psixologik) konflikt.

Romanda o‘rni bilan uchala konflikt ham yuzaga keladi. Masalan, Vosiq ibn Qosim – Abu Mansur bilan ziddiyatda bo‘lgan shaxslardan biri. Hayotiy vaziyat uning Moturidiy mansub jamiyat va muhitga nisbatan munosabatini salbiy tomonga o‘zgartirishga majbur etadi. Ikki qahramonni bog‘lab turgan do‘stlik rishtasi Vosiq La‘liy botinida to‘xtovsiz kurashlarni vujudga keltiradi. Vosiq ibn Qosim Abu Mansurning bolalikdagi do‘sti, asarning asosiy qahramonlaridan biri. Muallif asarning boshidayoq uni Imom Moturidiyga qarshi qo‘yadi. Bolalikdan bir-biridan ajralmas ikki do‘stning birining yuragida hasad olovining paydo bo‘lishini Madrasai Peshvozdagi domlalarining Abu Mansurni barcha

talabalardan ko'ra ko'proq ardoqlashlari sabab qilib ko'rsatadi. Ilm odami uchun o'zi sevgan ustozlar nazaridan chetda qolishdek og'riqli fojea yo'q, nazarimda. Ha, roman qahramoni Vosiq La'liy ham ilmi inson edi. Faqat Abu Mansurdagi kabi darveshlik, ilmda sobitlik, bag'rikenglik unga nasib qilmagan. Luqmon Bo'rixon bu qahramonning shaxsiyati, kechinmalarini ochib berishda biryoqlama ish qilmaydi, uni to'laqonli ravishda qora bo'yoq bilan tasvirlashdan chekinadi. Vaqti-vaqti bilan uni ham vijdon azobi qiynab turishini psixologik konflikt yordamida ko'rsatib beradi. Masalan, qozikalondan yangi hokimning Imomni jazolash niyatida Moturidga ketganligi xabarini eshitganda Vosiq ibn Qosim ruhiyatida qarama-qarshi kurashlar avj oladi: "Vosiq La'liy og'ir, ezgin qadamlar ila madrasa tomon yurdi. U chindan-da eshitganlaridan tashvishga tushgan edi. Darg'azab hokimning qilichi oldida sarpoychan bosh egib turgan Abu Mansur jonlanar ekan, ko'nglida o'kinchmi, shafqatmi, shunga o'xshash g'alati hislar bezovta g'imirlab qo'yardi". Bu esa o'z navbatida qahramon qalbida mudom tirik bo'lgan do'stlik tuyg'usining g'imirlab qo'yishidir.

Asarda voqealar tuguni o'sib, rivojlanib borgani sari voqealar kengayib, chuqurlashib boraveradi. Bu adabiyotshunoslikda «voqea rivoji» deb ataladi. Voqealar rivoji voqealar tuguni bilan voqealar kulminatsiyasi oralig'ida kechadi. Ya'ni asardagi voqealar rivoji Abu Mansurni jazolamoq uchun yo'lga otlanganidan to Idris Shomiy barcha sirdan voqif bo'lguniga qadar kechadi. Bu vaqt mobaynida islom dushmanlari hisoblanmish guruhlar tomonidan Abu Mansurga zarba berish niyatida qanchadan-qancha fitnalar uyushtiriladi, qancha insonlarni yo'ldan urishadi. Idris Shomiy va Vosiq La'liy o'zining qabih ishlarini har yo'sinda amalga oshirishadi. Har qanday ziddiyat, kelishmovchilik ham bora-bora eng yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Hayotning ana shu haqiqati badiiy asar syujetidagi voqealar rivoji uchun asos qilib olinadi. Ya'ni qahramonlar orasidagi qarama-qarshilik ham o'sib, o'zining eng baland darajasiga ko'tariladi. Romandagi eng dramatik sahna bu Idris Shomiyning haqiqatlardan xabar topgan kunidir. Ushbu sahna asarning "Sir fosh bo'lgan kun" bobida berilgan. Chunki ayni shu o'rinda ikki qahramonning haqiqiy qiyofasi namoyon bo'ladi. Bir vaqtlar g'ayriislomiy firqa – "Muqaddas fitna" uning oilasini qirib tashlab, bu vahshiyiligini musulmonlarga to'nkab, unda musulmonlarga nisbatan nafratini alanglatmoqchi bo'lishgani-yu, ikki farzandi ularning qo'lidani sog'-omon qochib qutulib, oxiri ular bilan topishganidagi hissiyotlari, kechinmalari, o'tmishda qilgan ishlaridan pushaymonlik hissining uyg'onib borayotganini tushungan o'quvchida Idris Shomiyga nisbatan mehr-shafqat, ammo qozikalonning ilojisiz qolganidan g'olibona qiyofaga kirgan, ko'z o'ngida bo'layotgan voqealardan dars olmagan Vosiq La'liyga nisbatan esa nafrati kuchayib boradi.

Har qanday voqea, oxir-oqibatda, qandaydir tarzda yakunlanadi. "Imom Moturidiy" romanida qahramonlar o'rtasida paydo bo'lgan ziddiyat asta-sekin rivojlanib, eng yuqori cho'qqisiga yetadi. "Asar syujetidagi voqealarning eng yuqoriga ko'tarilib, asosiy qahramonlar xarakteri, qiyofasini ko'rsatadigan epizodi voqealar kulminatsiyasi, syujet

tizimidagi voqealar va qahramonlar taqdirining hal bo‘lishini gavdalantiruvchi epizod esa yechim deyiladi”.

Roman syujetining yechimi asarning “Qatl” bobidagi Idris Shomiyning qatl etilishidir. Romanning ushbu bobida ham Imom Moturidiyning insonparvarligi, ishonuvchanligi, bir vaqtlar o‘ziga yomonlik sog‘ingan, islom dinini noto‘g‘ri talqin etib, uni odamlar ongiga singdirmoqchi bo‘lgan, g‘ayriislomiy guruhlar manfaati uchun xizmat qilgan qozikalonga nisbatan kechirimliligi aks etadi. Abu Mansur hazratlarining bu fazilatlariga yozuvchi Vosiq La‘liy tilidan ushbu bobda yashirin tarzda ishora qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ushbu tahlil insonda islom dinining naqadar bag‘rikeng ekanligini his etishga zamin yaratadi, Imom Moturidiy siymosini oqko‘ngillikning eng yuksak cho‘qqisida tasvirlash bilan ul zotga bo‘lgan hurmat, mehr-muhabbat tuyg‘usini oshiradi. Badiiy asarning kompozitsiyasi va syujetini, mazmun va shaklni, umuman, har bir obraz, ramz va poetik unsumni yaxlit bir konsepsiya asosiga qurish Luqmon Bo‘rixonning asl maqsadi bo‘lgan va romanni yaratish davomida bu maqsadiga u to‘laqonli erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Йўлчиев Қ. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. –Тошкент: Маърифат битиклари, 2021. –Б. 67.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. –Т.: Fan, 1978-1979.
3. Bo‘rixon L. Imom Moturidiy. –Т.: Adabiyot, 2022.
4. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Т.: G‘.G‘ulom, 2017.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –Т.: O‘zbekiston, 2002.